

**Usmonova Qumrinsa Saidaliyevna**

*Boshlang'ich ta'lif fakulteti o'qituvchisi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Ergasheva Dildora Safarali qizi**

*Boshlang'ich ta'lif fakulteti 2-kurs talabasi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

**Annatatsiya:** *Ushbu maqolada hozirgi zamонимизда ko'pchilikda uchrayotgan va albatta bizning ona yurtimiz yoshlарining ham ongiga juda katta ta'sir o'tqazayotgan, o'rgimchak to'ri " ya'niki internet(ijtimoiy tarmoq), uning yaratilish tarixi haqida fikr yuritiladi. Unga qarshi kurashish choralar, internetga bog'lanib qolgan yoshlар ongini to'g'ri yo'lga boshqarish, hozirgi yoshlarning internetdagi tarbiyasi haqida so'z boradi. Shuningdek, globallashgan davning, globallashgan yoshlарining tarbiyasi xususida mulohaza ketadi.*

**Kalit so'zlar:** *internet, axborot, axborot xavfsizligi, tarbiya*

**Аннотация:** В этой статье мы обсудим историю «паутины», то есть Интернета (социальной сети), которая распространена в наше время и оказывает большое влияние на умы молодежи нашей Родины. Обсуждаются меры борьбы с ним, направление сознания молодежи, зависимой от Интернета, на правильный путь, воспитание современной молодежи в Интернете. Также идет дискуссия об образовании глобализированной эпохи и глобализированной молодежи.

**Ключевые слова:** *интернет, информация, информационная безопасность, образование.*

**Abstract:** *In this article, we will discuss the history of the "spider web" that is the Internet (social network), which is common in our time and has a great influence on the minds of the youth of our motherland. Measures to combat it, directing the minds of young people who are addicted to the Internet to the right path, and education of today's youth on the Internet are discussed. Also, there is a discussion about the education of the globalized age and the globalized youth.*

**Key words:** *internet, information, information security, education*

Avvalambor, biz butun bir dunyo bo'yicha keng tarqalgan, o'rgimchak to'ri kabi yoshlarning ongini tarbiyasini, dunyoqarashini o'zgartirib yuborayotgan internet so'ziga e'tiborimizni qaratsak, Internet (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart minimal internet protokoli orqali ma'lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to'plamidir. Bu ma'lumotlarning asosiy tashuvchi protokoli TCP/IP dir. TCP/IP o'zaro bog'liq protokollar yig'indisi bo'lib, internetda ma'lumot tarqalishida asosiy o'rin egallaydi. Internet tarmog'ini minglab akademik, davlat, tijorat va xonodon tarmoqlari tashkil etadi. Internet elektron pochta, chat

hamda o‘zaro bog‘langan sahifalar va boshqa Butunjahon o‘rgimchak to‘ri servislaridan tashkil topadi.

Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste’molchilarga ma’lumotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash va ma’lum bo’lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va boshqa ko‘rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi. Internetning yaratilish tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak, 1950-chi yillar davomida barcha kompyuterlarni yagona kommunikatsion tarmoqqa ulash ehtiyoji tug‘ildi. Bu ehtiyoj markazlashmagan to‘r, navbat nazariyasi va paketlar kommutatsiyasi kabi sohalarda tadqiqotlarni olib borishga olib keldi. Bu voqealarning natijasida AQShda ARPANETning paydo bo‘lishi voqealarning keyingi rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Dastlabki TCP/IP protokoliga asoslangan tarmoq tizimi 1984-yil AQSh Milliy Fanlar Akademiyasida yaratilib, keyinchalik u NSFNet loyihasiga aylandi. 1995-yil internetning tijorat versiyalari paydo bo‘la boshladi.

1991-yil CERN Butunjahon o‘rgimchak to‘ri loyihasini e’lon qildi. Bu voqealarning Tim Berners-Lee tomonidan HTML, HTTPPlarning yaratilishi va CERNDa dastlabki veb-sahifalarni paydo bo‘lishidan 2 yil keyin sodir bo‘ldi. 1993-yil birinchi internet brauzer Mosaicning 1.0 versiyasi paydo bo‘ldi va 1994-yilda internetga ommaviy qiziqish tug‘ila boshladi. 1996-yildan internet so‘zidan keng foydalana boshlandi, biroq u asosan, Butunjahon o‘rgimchak to‘rini anglatadi.

Shu bilan birga internet 10 yil ichida juda tez tarqalib ketdi, uning ochiq arxitekturaga asoslanganligi, birovning mulki emasligi, markaziy boshqaruvning yo‘qligi uni organik rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Hozirda internet insoniyatning eng katta texnologik yutuqlaridan biri sifatida tan olindi<sup>1</sup>.

Endi biz internet mavzusiga oid bo’lgan axborot so‘ziga e’tibor qaratadigan bo’lsak, axborot deb, inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha ma’lumotlarga aytildi. Axborot lotincha information so‘zidan olingan bo’lib, tushuntirish, biror narsani bayon qilish yoki biror narsa yoki hodisa haqidagi ma’lumot ma’nosini anglatadi. Inson sezish a’zolari, texnikada turli asboblar va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari ma’lumotlar deb ataladi. Ma’lumotlar aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsagina u axborotga aylanadi. Axborot deganda atrof- muhitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan), sezgi a’zolamiz ko’z, qulqoq, burun, og’iz teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma’lumotni tushunamiz. Axborot turli-tuman ko’rinishda bo’lib, ularni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Matnli axborot;
2. Grafikli axborot;

3. Tovushli axborot;
4. Videolavhali axborot;
5. Belgili axborot;
6. Raqamli axborot.

Jahon tajribasidan ma'lumki, davlat axborot infrastrukturasining rivojlanishi barcha sohalarni, shuningdek, odamlarning dunyoqarashi va ularning ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Bugungi kunda axborot texnologiyalari, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma'lumotlar bazasi davlat strukturalarini, iqtisodiyotni va mamlakat xavfsizligini boshqarishning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Shu bois O'zbekistonda ham axborot manbalari va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan milliy qonunchilik asoslari yaratildi, u davlat axborot infrastrukturasining shakllanishida ijobiy rol o'ynamoqda. Shunga qaramasdan axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va uzatish tizimlaridan foydalanishda himoya va kirishni cheklash vositalardan minimal holda foydalanilmoqda. Bunda milliy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi ma'lumotlarning chiqib ketishi va davlat axborot maydoniga kirib kelish xavfi o'sib boradi. Zamonaviy axborot bozorini shakllantirishda axborot xavfsizligi, ayniqsa, bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari alohida o'rinn egallaydi.

Shunday ekan, jamiyatning axborot xavfsizligini ta'minlash davlat va uning vakolatli organlarining asosiy vazifasi bo'lib qolaveradi. Axborot xavfsizligi deganda - shaxs, jamiyat va davlatning xavfli axborotlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Axborot texnologiyalari turli axborot tarqatish manbasi ekan, bunda axborot xavfsizligini ta'minlash bir tomonidan davlatning ushbu sohadagi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan bo'lsa, jamiyatda bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash ikkinchi asosiy va muhim davlat ustuvor siyosati hisoblanadi. Bugungi kunda kitob, ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda bolalarga Internet global tarmog'i behisob va turli mavzudagi axborotlarni jamiyatga, xususan, bolalarga taqdim etib kelmoqda.

Axborot bozori salohiyati, xavfli yoki foydaligidan qat'iy nazar bolalarga tovar sifatida axborotni taklif etmoqda. Bu axborotlar bolalarni yo saodatga yetaklaydi,

yoki falokatga duchor qiladi. Internet global tarmog'i behisob va turli mavzudagi axborotlarni jamiyatga, xususan, bolalarga taqdim etib kelmoqda. Axborot bozori salohiyati, xavfli yoki foydaligidan qat'iy nazar bolalarga tovar sifatida axborotni taklif etmoqda. Bu axborotlar bolalarni yo saodatga yetaklaydi, yoki falokatga duchor qiladi. Yoshlar tarbiyasi — jamiyatdagi muhim masaladir. Inson hayoti bir necha bosqichlarga bo'linadi. Bu bosqichlar ichida umrning yoshlik bosqichi alohida ahamiyatga egadir. Yoshlik insonning eng nozik davri hisoblanib, insonning quvvatga to'lgan va harakatchanligi ziyoda bo'lgan vaqtidir. Shu bilan birga bu davr insonning hayot yo'llarining chorrahasida turgan payti hamdir. Agar, o'sha chorrahada yaxshi yo'lga kirib olinsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun juda katta yaxshilik sari yuzlangan bo'ladi. Agar, Alloh taolo ko'rsatmasin, mazkur chorrahada yomon yo'lga

burilib ketsa, o'zi, oilasi, xalqi, vatani uchun ko'ngilsiz hodisalar sari qadam qo'ygan bo'ladi. Yoshlar har bir millatning kelajagidir. Bu esa yoshlarga jiddiy ahamiyat berilishi lozimligini bildiradi. Har bir shaxsning kim bo'lishligi yoshlik paytidan bilina boshlaydi. Yoshlik paytida shakllanib qolgan sifatlar insonga butun umri davomida hamroh bo'ladi. Shuning uchun jamiyatda yoshlarning odobli, aqli, halol, tarbiyalı inson bo'lishlari uchun harakat qilinadi. Yoshlarning tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillar ijobiy va salbiyga bo'linadi. Alloh taoloning oxirgi va mukammal dini, qiyomatgacha boqiy qoluvchi, barcha zamonlar va makonlarda insoniyatga ikki dunyo saodati yo'lini ko'rsatib beruvchi dini — Islomda yoshlarning tarbiyasiga oid ko'plab oyat va hadislar vorid bo'lgan. Mana shu oyat hadislarga og'ishmasdan, to'laligicha amal qilinsa, Allohning tavfiki bilan, o'sib o'nayotgan farzandlar chiroyli xulqli, odobli, tarbiyalı bo'lib o'sadilar va umrlarining oxirigacha shunday yashaydilar. Ulardan barcha mammun bo'ladi, insonlarning hurmatiga, muhabbatiga sazovor bo'lishadi. Islom dini hech kimni hech qachon yomonlikka chaqirmaydi balki, doimo yaxshilik qilishga, go'zal xulqlar bilan xulqlanishga, halol yashashga chaqiradi. Bu tarbiyaning islomiy ko'rinishi. Buni ijobiy tarbiya deyiladi.

Endi salbiy tarbiya qanday bo'ladi, nimadan kelib chiqadi? Salbiy tarbiya bu ijobiy tarbiyaning aksi bo'lib, uning salbiy ekanligi faqatgina ta'lim orqali bilinadi. Uning kelib chiqishi johillik sababidan, qaysarlik va bo'yinsunmaslikdan, havo nafsga berilib ketishdan kelib chiqadi. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida, yoshlar orasida mashhurlik darajasiga erishgan «Ommaviy madaniyat» deb ataluvchi ofat yoshlarning orasiga chuqur singib ketgan bo'lsa-da, uning yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sirlari mana endi endi muhokama qilinmoqda. «Ommaviy madaniyat»ni yoshlarning yurish turishida, salomlashishida, ayniqsa kiyinshida yaqqol ko'zga tashlansa-da, ko'pchilik bunga oddiy holdek yondoshib, «bu moda, zamonning talabi shunday» deb bahona izlashadi. Internet keng imkoniyatlar eshagini ochdi. Uydan ko'chaga chiqmay turib global tarmoq orqali dunyo kutubxonalari bo'ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta'lim muassasasining masofaviy (virtual) talabasi bo'lish, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audiomahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnomalar orqali bajarish, pul ishlab topish mumkin. Xullas, internetning ijobiy jihatlari bisyor.

Ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligi-chi? Onlayn konferensiylar o'tkazish, onlayn malaka oshirish, yaqinlar va tanish-bilishlar bilan tez, arzon video yoki audiomuloqot qilish.

Mana shu jihatlari bilan internet keyingi paytlarda jozibadorlikda televide niye, radio va boshqa axborot vositalarini ortda qoldirmoqda.

Lekin internet ko'plab foydali jihatlari bilan birga salbiy oqibatlarini ham namoyon qilmoqda. Aholida ayniqsa yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining

sustligi, turli xabarlar oqimidan kerakligini ajratib olishda bilim, malaka va ko'nikmaning yetishmasligi ba'zilarning g'arazli kimsa va oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga, internet qaramligi kasalligiga yo'liqishlariga sabab bo'lmoqda. Xitoy Xalq Repspublikasida internetga qaramlik kasallik sifatida e'tirof etilib, uni davolovchi maxsus shifoxonalar tashkil etilgani so'zimizning isbotidir.

Global tarmoq natijasida yuzaga kelgan eng katta muammo, bu, albatta, qaramlik, tobelik kasalligidir. Yoshlarning ko'p vaqtini internetda o'tkazishlari global muammoga aylanib ulgurgan. Bugun internet ayrim yoshlar uchun mashhur yozuvchi Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari qahramoni Hoshimjon topib olgan sehrli qalpoqchadir.

Umuman, internetga qaramlikning eng og'ir jihatni real olamni, insoniylik burchi va vazifalarini unutishdir. Inson haqiqiy hayotda yashashi, halol mehnat qilishi, ilm olishi, zimmasidagi vazifalarini sidqidildan bajarishi, el-u yurtiga fidoyilik bilan xizmat qilishi, atrofdagilarga foyda keltirishi zarur.

Internetda ko'p vaqtini o'tkazadigan insonning ruhiyatida mavhumlik va o'z qobig'iga o'ralib olish holati kuzatiladi. Bu esa uni kelajakda "uchinchi kuchlar" tomonidan manqurtlashishi, zombilashtirilishi uchun zamin yaratadi. Bugungi kunda buzg'unchi guruuhlar yoshlar ongiga ta'sir qilishda asosan internetdan foydalanayotganlari bejiz emas.

Internetning yana bir salbiy jihatni kishilardagi xudbinlik, manmanlik, zamonaviy tilda ifoda etganda, egosentrizm illatining kuchayishiga sabab bo'lishidir.

Bugungi dunyo yoshlari son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda. Bugun internet madaniyati, virtual madaniyat, axborot madaniyati, ma'lumotlardan to'g'ri foydalanish madaniyati kabi tushunchalar hayotimizdan o'rinni egalladi. Yoshlarda internet olamida o'z o'rnini to'g'ri belgilash va foydalanuvchilar bilan to'g'ri muomala qilish, virtual olamdagи axborotlarni to'g'ri tahlil qilish malakasini shakllantirish davr talabidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, yoshlarimizning kitob bilan muloqotda bo'lishi, internet tarmog'idan axborot olishi, ruhiyatini sog'lom va bunyodkorlikka undovchi axborotlar bilan mustahkamlab borishida davlat xavfli axborotlarning erkin aylanishining oldini olish, bunda esa mavjud qonunchilikni takomillashtirish, ta'lim tizimini mustahkamlash, bolalarda erkin fikr yuritish va o'zini qiziqtirgan barcha savollarga javob oladigan muloqot maydonini yanada kengaytirish muhim hisoblanadi. Internetning imkoniyatlari cheksiz. Agar undan samarali foydalinilsa katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli tahdidlardan asrash, ularda xalqaro tarmoq tomonidan taqdim etilayotgan turli axborot oqimidan haqqoniy ma'lumotlarni saralay bilish, to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish, axborot xavfsizligini ta'minlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan yoshlarni internet saytlarga kirishida axborotdan to'g'ri va maqsadli foydalanish madaniyatini yuksaltirish zarur.

Tavsiya o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tamanki, ota-onan nazoratini kuchaytirib, ularga qattiqqo’llik qilish, har bir qadamidan xabardor bo’lish, ularning keljakdagi egallamoqchi bo’lgan kasblari haqida suhbatlashish, bolaning nutqiy va aqliy salohiyati shu bilan takomillashtirish zarur. Birgina shu choralar bilan yoshlarimiz virtual olamdan real olamga o’tishi, real olamda uni qo’llab-quvvatlab turuvchi insonlar, ustozlar, do’st- birodarlar borligini tushunib yetishlari mumkin. Bunga qarshi kurashish faqatgina ota-onaning vazifasi emas, barchaning ya’ni ustoz, mahalla balki bir butun jamiyatning ishi bo‘lishi zarur. Shundagina biz ushbu xavfni bartaraf etgan bo‘lamiz

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:**

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/4259-yoshlar-tarbiyasi-jamiyatdagi-muhim-masala.html>
3. <https://fayllar.org/download/mavzu-axborot-va-uning-manbalari-v2.doc>
4. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Internet&variant=uz>
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/internet-va-uning-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati>
6. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o‘quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzlucksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b <https://lib.csipi.uz/index.php?newsid=7951>
7. Usmonova Q.S. Boshlangish ta’limda Filandiya ta`lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
8. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s
9. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in
10. Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s